

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**G. XALLIYEVA**

# **ADABIYOTSHUNOSLIK**

**5120100 - Filologiya va tillarni o'qitish talabalari uchun o'quv  
qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan**

**Toshkent-2017**

Ushbu o‘quv qo‘llanmada adabiyotshunoslik fani va uning dolzarb mummolari shu bilan birga kitobxon va badiiy asar o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik masalalari xorij tajribasi asosida tahlil va talqin qilingan. Mavjud topshiriqlar talabaning kreativ tafakkurini oshirishga va mustaqil izlanishiga qaratilgan.

**Taqrizchilar:**

**R.Umarova** – filologiya fanlari doktori, professor

**Z.Islomov** – filologiya fanlari doktori, professor

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017-yil 24-avgustdagи 603-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

O‘quv qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Kengashining 2017-yil 30-martdagи 8-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## KIRISH

“Adabiyotshunoslik” fani dunyo oliv ta’lim maskanlarining deyarli barcha gumanitar fakultetlarida o‘qitiladi. Fanning asosiy maqsadi adabiyotshunoslikning ilmiy-nazariy xususiyatlari va eng muhim qirralari bilan tanishtirish, badiiy ijodni, ijod psixologiyasini tushunishga o‘rgatish, badiiy asarni tahlil va talqin qila olish malakasini shakllantirishdan iborat.

“Adabiyotshunoslik” fani adabiyot nazariyasi, jahon adabiyoti, o‘zbek adabiyoti tarixi, adabiy jarayon kabi fanlar bilan bevosita aloqador bo‘lib, ularni o‘zlashtirish uchun talaba nazariy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi. Mazkur fan filologiya fakulteti birinchi bosqich talabalarining mакtabda olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash asosida ularni adabiyotning boshqa kurslaridan ma’ruzalar tinglashga tayyorlaydi, badiiy asarni nafaqat o‘qish, balki uqish sirlaridan voqif qiladi.

Badiiy adabiyot durdonalarini mukammal o‘rganish talabalarning adabiy-estetik tafakkurini yuksaltiradi, ularning evristik va kreativ qobiliyatini rivojlantiradi, ilmiy mushohada qilishga yordam beradi. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish davlat siyosati darajasidagi masalalardan biri bo‘lib, respublikamizda bu borada bir qancha muhim davlat hujjatlari qabul qilingan va qilinmoqda. Endi ta’lim sistemasi o‘qitishga mutlaqo yangicha yondashishni, mediasavodxonlikni oshirishni va AKTdan unumli foydalanishni, horij tajribasi asosida eng yaxshi an’analarni o‘quv jarayoniga tatbiq qilishni taqozo etmoqda.

Endi biz - o‘qituvchilar «nimani, qanday o‘qitamiz» degan savoldan tashqari, «qanday o‘qitsak, ijobiy natija olamiz», «nima qilsak, haqiqatdan adabiyotning «atomdan kuchli» ekanligini isbotlaymiz va yoshlarimizda badiiy kitobga mehr uyg‘ota olamiz» degan savollarga ham javob izlashimiz kerak. Shuningdek, biz Cho‘lponning «Adabiyot chin ma’nosи ila o‘lgan, so‘ngan, o‘chgan, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg‘on, o‘tkur yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladirg‘on, chang va tuprog‘lar to‘lgan ko‘zlarimizni artub tozalaydirg‘on buloq suvi bo‘lg‘onlikdan

bizga g‘oyat kerakdir» kabi abadiylikka dahldor fikrlari hamma zamonlar uchun ham muhim va dolzarbligini yetkaza olishimiz lozim.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada “Adabiyotshunoslik” fanining dolzarb muammolari, adabiy-estetik qadriyatlarning milliy va umumbashariy jihatlari, shu bilan birga kitobxon va badiiy asar o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik, nazariy qonuniyatlar xorij tajribasi asosida yoritilgan. Unda nazariy ma’lumotlardan tashqari, keys topshiriqlar, grafik organayzerlar, badiiy asar tahlili sxemasi, jahon adabiyotshunoslari haqida qisqacha ma’lumot, o‘zbek va rus tillarida glossariy, foydalanish uchun adabiyotlar va elektron axborot resurslarining nomlari keltirilgan. O‘quv qo‘llanmani yaratishda mavjud qo‘llanma va darsliklardan, fan bo‘yicha tayyorlagan UMK materiallaridan foydalanilgan.

Respublikamizning I.Sulton, D.Quronov, A.Ulug‘ov, B.Karimov kabi taniqli olimlari, M.Baxtin, Yu.Borev, J.Kaller, V. Jirmunskiy, V.Xalizev kabi xorij olimlarining ilmiy asarlarida adabiyotshunoslikning nazariy tomonlari yetarli darajada yoritib berilgan.. Shuning uchun biz asosiy diqqat e’tiborimizni badiiy asar tahlili bilan bog‘liq masalalarga, mustaqil topshiriqlarga, adabiyot olamidagi yangiliklarga qaratdik. Toki, talabalarimiz olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olsin.

## **ADABIYOTSHUNOSLIK - BADIY ADABIYOT HAQIDAGI FAN**

*Adabiyotshunoslik, matnshunoslik, manbashunoslik,  
bibliografiya, folklor, adabiy tanqid, ob'ekt, adabiy-nazariy fikrlar*

Adabiyot so'zi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Keng ma'noda umuman chop etilgan kitoblarni, tor ma'noda esa badiiy adabiyotni anglatadi. Adabiyotning estetik ahamiyati - go'zallik qonunlari asosida borliqni o'zlashtirishidir.

Badiiy adabiyot adabiyotshunoslikning o'rghanish ob'ekti hisoblanadi. Adabiyotshunoslik badiiy adabiyotning kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatları, ijtimoiy aloqalarini o'rGANADI. Badiiy adabiyotning og'zaki va yozma shakllari mavjud. Xalq og'zaki ijodi - folklor durdonalari og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelgan og'zaki ijod namunalari natijasida yuzaga kelgan.

Adabiyotshunoslik adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi va adabiy tanqid kabi asosiy tarkibiy qismlardan iborat. Adabiy manbashunoslik, adabiy matnshunoslik, bibliografiya adabiyotshunoslikning yordamchi sohalari hisoblanadi.

Badiiy adabiyot tarixi va adabiy-nazariy tafakkur tadrijining shaxs va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Sharq mutafakkir va shoirlaridan Shayx Axmad Taroziyning «Funun al-balag'a», Navoiyning «Mezon ul-avzon», Boburning «Muxtasar», Fitratning «Adabiyot qoidalari», Cho'lponning «Adabiyot nadir» kabi asarlari adabiy-nazariy fikrlar taraqqiyotida muhim rol o'ynadi.

Adabiyotshunoslik falsafa, tilshunoslik, tarix, pedagogika, psixologiya, etika, estetika, san'atshunoslik, arxeologiya kabi fanlar bilan o'zaro bog'liqlikda taraqqiy etadi.

### **Adabiyotlar va elektron resurslar**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.:Ma'naviyat. 2008.
2. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. - T.: Yangi asr avlod. 2004.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. -T.: Xalq merosi nashriyoti. 2007.
4. Nikolaev A.I. Osnovi literaturovedeniya. -M.2011.

5. Xabibjonov I. Adabiyot darsliklarida tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘ati // www.kitobxon.com

6. Cho‘lpon. Adabiyot nadir // www.e-adabiyot.uz

7. Krupchanov L.M. Teoriya literaturi. Uchebnik. -M.: Flinta, 2012 // www.litmir.me

### **Mavzu yuzasidan test savollari**

1. O‘zbek adabiyotshunosligida adabiyot tarixining dastlabki manbalaridan biri, shoir va yozuvchilar haqida ma’lumot beruvchi asarni belgilang.

- A. Sayohatnomalar
- V. Tazkiralar
- S. Dostonlar
- D. Memuarlar

2. Fitratning “Adabiyot qoidalari” risolasida qaysi muammoga katta ahamiyat berilgan?

- A. She’riyat.
- V. Tarix.
- S. Mafkura.
- D. Drama.

3. Adabiyotda epik, lirik, dramatik va liroepik asarlarning nazariy jihatlarini ochib beruvchi adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi?

- A. Adabiy tankid
- V. Adabiyot nazariyasi
- S. Adabiyot nazariyasi.
- D. Bibliografiya

4. Yozuvchi va shoirning o‘ziga xosligi, uning adabiyotga ko‘shgan yangiligi nima deb ataladi?

- A.Novatorlik
- V.An’anaviylik

S.G‘oyaviylik  
D.Umumbashariylik

5. Adabiyotshunoslikning yordamchi sohalarini ko‘rsating?

- A. Bibliografiya, adabiyot nazariya.
- B. Adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid
- C. Adabiyot tarixi, manbashunoslik.
- D. Adabiy manbashunoslik, bibliografiya

6. So‘z san’atining vujudga kelishi va rivojlanish tarixini tadqiq etuvchi, adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlaridan biri.

- A. Adabiyot nazariya.
- B. Adabiyot tarixi
- C. Manbashunoslik.
- D. Adabiy tanqid

## BADIIY ADABIYOT- SAN'AT TURI SIFATIDA

*San'at, amaliy va badiiy san'at, so'z san'ati, badiiy asar, obraz, obrazlilik, obraz turlari, adabiyotning ijtimoiy vazifalari*

San'at» insonning go'zallik konuniyatlari asosida borlikni badiiy o'zlashtirishga karatilgan yaratuvchilik faoliyati hamda uning natijasida vujudga kelgan narsalarning jamidir.

San'at amaliy va badiiy san'at turlariga ajraladi. Kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, modelerlik kabilar amaliy san'at turiga mansub bo'lsa, adabiyot, rassomlik, musika, xaykaltaroshlik, kino, teatr kabilar badiiy san'at turlari hisoblanadi. Amaliy va badiiy san'at turlarining umumlashtiruvchi va farqli jixatlari mavjud. Amaliy san'at go'zallik konunlari asosida kechgan mehnat faoliyati mahsuli bo'lsa, badiiy san'at go'zallik konunlari asosida kechgan ijodiy-ruhiy faoliyat natijasidir.

Adabiyot san'atning musiqa, rassomchilik, xaykaltaroshlik kabi boshqa san'at turlaridan so'z san'ati ekanligi bilan farq qiladi.

Obrazlilik – har qanday san'at turining asosiy xususiyati. Obraz - ijodkor yaratgan inson dunyosining umumlashgan tasviri, voqelikning badiiy in'ikosi. Badiiy adabiyotdagi obraz “badiiy to'qima yordamida yaratilgan, estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni paytda aniq manzarasi.”<sup>2</sup>

Obrazlar xayoliy-fantastik, satirik, majoziy-ramziy, afsonaviy kabi turlarga ajraladi. Dunyo, Sharq, Amerika obrazi kabilar ilmiy adabiyotlarda obrazlar gipersistemasi deb ko'rsatilgan<sup>1</sup>.

Badiiy adabiyotning jamiyat hayotidagi o'rnini tasavvur qilish uchun u bajarayotgan ijtimoiy vazifalar nimalardan iborat ekanligini bilish lozim. Badiiy adabiyotning eng muhim vazifasi - insonni komillik sari yetaklashidir. Bundan tashqari adabiyot bilish (evristik), badiiy-konseptual, kommunikativ, tarbiyaviy (didaktik), kompensatorlik (tasalli berish), badiiy bashorat, estetik funksiyalarni ham amalga oshiradi. Masalan, badiiy adabiyotning estetik vazifasi -

<sup>2</sup> Л.И.Тимофеев. Основы теории литературы, Москва, 1971, стр. 62-63.

<sup>1</sup> [www.listos.biz/филология/николаев-а-и-основы-литературоведения/виды-художественных-образов](http://www.listos.biz/филология/николаев-а-и-основы-литературоведения/виды-художественных-образов)

insonda go‘zallik tuyg‘usini shakllantirishi, rivojlantirishi, nozik didni tarbiyalashi bilan belgilanadi.

Badiiy adabiyotning inson aqli va ma’naviy kamolotiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi e’tiborga olinib, 2017 yil 12 yanvarda O‘zR Prezidenti Sh.Mirziyoevning kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan Farmoyishi e’lon qilindi<sup>1</sup>.

### **Adabiyotlar va elektron resurslar**

1. Fitrat Adabiyot qoidalari. -T., 1995
2. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. T., Fan. 2004.
3. Karimov O. Badiiy obrazning ko‘p ma’nolilik xususiyati // O‘zbek tili va adabiyoti . 1990. №.3. -B.21-26.
4. Potebnya A. Estetika i poetika. -M.:1976.
5. To‘ychiev U. O‘zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari // www.kitobxon.com
6. Borev Yu. Estetika: Uchebnik // www.gumer.info
7. Spesificheskie svoystva xudojestvennoy literaturi // www.studfiles.net

### **Mavzu yuzasidan test savollari**

1. Adabiyot boshqa san’at turlaridan qanday farq qiladi?

- A. Obrazliligi, g‘oyaviyligi
- V. So‘z san’ati, badiiyligi
- S. Estetik vazifasi, mavzusi
- D. Umumbashariyligi, milliyligi

2. Badiiylikning birlamchi sharti nima?

- A. Obrazlilik
- V. Sifatlash

<sup>1</sup> ЎзР Президентининг «Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида” ги Ф-4789-сонли Фармойиши // www.lex.uz

- S. Mubolag‘a
- D. Badiiy to‘qima

3. Badiiy adabiyot va san’atdagi obrazlilikning fantastika va mubolag‘aga asoslangan turi ko‘rsatilgan javobni belgilang

- A. Simvolizm
- B. Akmeizm
- S. Grotesk
- D. Gradatsiya

4. Biror badiiy asardagi obraz uchun asos bo‘lgan shaxs nima deyiladi?

- A. Obraz
- V. Tip
- S. Xarakter
- D. Prototip

5. Didaktik asarni belgilang?

- A. «Devoni lug‘otit turk»
- V. «Gul va Navro‘z»
- S. «Muhabbatnoma»
- D. «Hibatul- haqoyiq»

6. Obraz turlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang?

- A. Xayoliy-fantastik, norasmiy, tarixiy obrazlar.
- V. Romantik, majoziy, intelektual obrazlar.
- S. To‘qima , romantik, satirik obrazlar
- D. Majoziy, xayoliy-fantastik, afsonaviy obrazlar.

## BADIY ASARDA MAVZU VA G‘OYA

*Badiy asar, badiy ijod, mavzu, g‘oya, abadiy mavzular, leytmotiv, yaxlitlik, butunlik, voqelik, shakl, mazmun.*

Har qanday san’at badiy asar shaklida yashaydi. *Keng ma’noda* insonning go‘zallik qonuniyatlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyatidan badiy asar yaraladi (musiqa, rasm, haykal, kino, raqs va h.k.) *Tor ma’noda* badiy adabiyotga mansub kitoblar badiy asar deyiladi. (“Xamsa”, “Boburnoma”, “O‘tgan kunlar”, “Shaytanat”, “Urush va tinchlik” kabi)

**Badiy asarda ijod jarayoni** muhrlanadi. Shu bois ham badiy asar tabiatini anglash uchun badiy ijod jarayoni haqida tasavvurga ega bo‘lish kerak.

Badiy asarda qo‘yilgan va yoritilgan hayotiy masalalar, yozuvchi tomonidan asarda ko‘tarilgan va ko‘p qirrali mazmunni yagona yaxlitlik holiga keltirib turadigan asosiy muammo *mavzu* deb ataladi. Mavzu tanlashda yozuvchining dunyoqarashi va mahorati muhim ahamiyatga ega. Badiy asarda abadiy va davriy mavzular aks etadi. Do‘slik, muhabbat, baxt va baxtsizlik, mehr, qayg‘u, quvonch va boshqalar adabiyotning abadiy mavzularidir. Bundan tashqari har bir zamonning o‘z muammolari bo‘ladi, ular davriy mavzular deyiladi.

Yozuvchilar adabiy asarda muayyan hayotiy muammolarni ko‘tarib chiqish bilangina cheklanmaydilar, balki uning hal qilinishi yo‘llarini ham ko‘rsatadilar, muayyan bir fikrni ilgari suradilar. Shunga ko‘ra adabiy asarda har doim yozuvchining muhim fikri, g‘oyasi bo‘ladi. Chinakam badiy asarlarda har bir voqea, har bir shaxs va hatto eng kichik tafsilot ham g‘oyaning ifodalanishiga xizmat qiladi. Yozuvchi asarda ilgari surgan asosiy g‘oya *leytmotiv* deb ataladi.

Adabiy asarning yaxlitligi, bir butunligi, birinchi navbatda, unda ifodalangan mazmun bilan belgilanadi. Mazmun esa biror shaklda ifodalanadi. Badiy asar mazmun va shaklning birligidan tashkil topadi. «Mazmun voqelikning mohiyati, shakl mohiyatni ochib berish vositalaridir»<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Содержание и форма литературного произведения Ф Крупчанов Л.М. Теория литературы. Учебник. -М.: Флинта, 2012 FF [www.litmir.me](http://www.litmir.me)

Mazmun qanchalik murakkab bo‘lsa, shakl shunchalik boy bo‘ladi. Shuning uchun ham mazmunan boy, shaklan go‘zal asarlar abadiyatga dahldor bo‘ladi.

### **Adabiyotlar va elektron resurslar**

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyev M. Adabiyotshunoslik lug‘ati.-T.: Akademnashr, 2013
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari - T.: O‘zbekiston, 2002.
3. Bahodir Karim «O‘tkan kunlar»ga qaytib...// [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz)
4. Xalizev V.E. Teoriya literaturi. Uchebnik. -M.: 2004 // [www.twirpx.com](http://www.twirpx.com).
5. Kaller Djonatan. Teoriya literaturi. Kratkoe vvedenie. - M.: Astrel ACT, 2006// [www.twirpx.com](http://www.twirpx.com)
6. Mineralova I.G. Analiz xudojestvennogo proizvedeniya. – M.2011

### **Mavzu yuzasidan test savollari**

1. Badiiy adabiyotdagi abadiy mavzularni toping
  - A. Do‘stlik, bolajonlilik
  - V. Muhabbat, do‘stlik
  - S. Baxt, mehnatsevarlik
  - D. Mehr, mehmondo‘stlik
2. Asar mazmunining qisqacha bayoni nima deb ataladi?
  - A. Sharh
  - V. So‘z boshi
  - S. Annotatsiya
  - D. So‘ngso‘z
3. Qaysi asarning leytmotivi xalqlar do‘stligini tarannum qiladi?
  - A.«Layli-Majnun»
  - V. «Farhod va Shirin»

S. «Sab’ai sayyor»

D. «Saddi Iskandariy»

4. Mavzu tanlashda nima muhim ahamiyat kasb etadi?

A. Yozuvchining dunyoqarashi va mahorati

V. Ijodkorning mualliflik pozisiyasi

S. Muallifning ijodiy fantaziyasi

D. Adibning ijodiy malakasi

5. Sharq va jahon adabiyotida memuar janrning nodir namunasi hisoblangan asarni toping?

A. «Qissai Rabg‘uziy»

V. «Shayboniynoma»

S.«Shoh mashrab»

D. «Boburnoma

6. Badiiy asar deganda nimani tushunasiz?

A. Badiiy adabiyotga mansub kitoblar

V. Har qanday amaliy va badiiy san’at turi

S. Estetik qonuniyatlar asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyat natijasi

D. “Boburnoma”,“O’tgan kunlar” kabi asarlar

## BADIIY ASAR SYUJETI VA KOMPOZISIYASI

*Syujet, syujet unsurlari, ekspozisiya, syujet turlari, konflikt, badiiy detal, kompozisiya, kompozision vositalar.*

Syujet badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimi. Badiiy asar syujeti asar mavzusini shakllantiradi.

Syujet - syujet unsurlaridan (ekspozisiya, tugun voqeа rivoji, kulminatsiya, yechim) dan tarkib topadi. **Ekspozisiya** - voqealar kechadigan joy, qahramonlar, shart-sharoit. Ekspozisiya hajm e'tibori bilan turlicha bo'lishi va asarning turli o'rinalarda kelishi mumkin. **Tugun** asar voqealarining boshlanishiga turtki bo'lgan voqeа. **Voqeа rivoji** syujet voqealarining bosqichma-bosqich rivojlanib borishi. Asardagi voqealar rivojinining eng yuqori nuqtasi badiiy asar **kulminatsiyasi** deyiladi. **Yechim** syujet voqealari rivojinining yakuni, qahramonlar ruhiyatida, taqdirida yuzaga kelgan holat, asar qahramonlari orasidagi ziddiyatlarning badiiy yechimi.

Konflikt - to'qnashuv, ziddiyat syujetni harakatga keltiruvchi kuch, uning ta'sirchanligini, ko'lamenti belgilovchi syujet unsuri. Badiiy asarda inson va inson, inson va tabiat, inson va jamiyat, inson va texnika kabi ziddiyat turlari uchraydi.

Voqeа-xodisalarni hikoyalash tamoyiliga ko'ra syujetning xronikal syujet, retrospektiv syujet, konsentrik syujet, assotsiativ syujet turlari mavjud.

Badiiy asar kompozisiyasi – asarning tuzilishi, vujudi. Syujetdan tashqaridagi qismlar: asar nomi, epigraf, lirik, falsafiy, publisistik chekinishlar, qo'shimcha lavhalar, kiritma voqealar, peyzaj, portret, ruhiy tahlil va h.k. kompozision vositalar hisoblanadi.

### Adabiyotlar va elektron resurslar

1. Karimova S. Kompozision mukammallik yo'lida //O'zbek tili va adabiyoti. - №6. 1991.
2. Turdiyev K. Asar syujeti va kompozisiyasi haqida// Til va adabiyot ta'limi. - №3. 2001.
3. Qurbanov T. Portret yaratish uslubi haqida //O'zbek tili va adabiyoti. - №5. 1996

4. Jirmunskiy V.M. Vvedenie v literaturovedeniyu.-SPb., 1996. // www. studfiles.net

5. Vinogradov V.V. Syujet i stil: Sravnitelno-istoricheskoe issledovanie - M., 1963 // www. books.e-heritage.ru

### **Mavzu yuzasidan test savollari**

1. Qahramonlarning asar syujeti voqealarini tamom bo‘lgandan keyingi taqdiri haqida ma’lumot beruvchi qism?

- A. Epilog
- V. Ekspozisiya
- S. Syujet
- D. Voqealar tuguni

2. Dramatizmni kuchaytiradigan, voqealar rivojiga turtki va keskinlik beradigan badiiy vositalardan biri?

- A. Epilog
- V. Badiiy portret
- S. Badiiy konflikt
- D. Peyzaj

3. Badiiy to‘qima nima?

- A. Asosiy syujet rivojidan avval beriladigan epizod
- B. Syujetga yaqin manzaralar va voqealar
- C. Ijodkorning remarkasi
- D. Yozuvchining ijodiy tasavvuri va taxayyuli mahsuli

4. Qaysi syujet turida asardagi voqealar kulminatsiyadan boshlanadi?

- A. Konsentrik syujet.
- V. Retrospektiv syujet
- S. Xronikali syujet
- D. Assotsiativ syujet

5. Adabiy asardagi asosiy voqealar tizmasiga bevosita aloqador bo‘lмаган, lekin muayyan g‘oyaviy maqsadga bo‘ysundirilgan kompozision vosita?

- A. Badiiy detal
- V. Lirik chekinish
- S. Kiritma voqea
- D. Badiiy qoliplash

6. Badiiy detal asosiy mazmunni ochishga xizmat qilgan asarlarni belgilang

- A. “Anor”, “Otello”
- V. “Dahshat”, “Alximik”
- S. ”Shum bola”, “Oq kema”
- D. “ Farhod va Shirin”, “Anor”

## BADIY ASAR TILI

*Badiy til, monolog, dialog, shevaga xos so‘zlar, maxsus leksik resurslar, badiy tasvir vositalari, epitet, o‘xshatish, metafora, metonimiya, badiy nutq poetikasi, she’riy san’atlar*

Til adabiyotning asosiy quroli. Tilning umumxalq (jonli, milliy), ma’lum qoidalarga asoslangan adabiy til, badiy (poetik) til kabi ko‘rinishlari mavjud.

Til - badiy obraz yaratish vositasi. So‘z yordamida turli-tuman manzaralar, his-tuyg‘ular, fikr va hodisalar jonli, ta’sirchan holda tasvirlanadi. Badiy asardagi har bir so‘z asar mazmunini ifodalashga xizmat qiladi. So‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llash yozuvchi va shoirning mahoratiga bog‘liq.

Ijodkor tilning maxsus leksik imkoniyatlari (sinonim va antonimlar, arxaizm va neologizmlar, dialektizm va jargonizm professionalizm va varvarizmlar) dan shuningdek, *monolog, dialog, poliloglardan* unumli foydalanadi. Badiy asar tilining xususiyatlari, nazariy asoslari ilmiy adabiyotlarda yoritilgan.<sup>1</sup>

Adabiy asarlarning badiy jihatdan mukammal chiqishida tilning tasviriy-ifodaviy vositalari (*o‘xshatish, metafora, jonlantirish kabi*), poetik figuralar (*ritorik so‘roq, murojaat va xitob, takror kuchaytirish, parallelizm, qarama-qarshi qo‘yish, inversiya kabi*) va she’riy san’atlar (*tazod, talmeh, istiora kabi*) ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### Adabiyotlar va elektron resurslar

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. -T.: Xalq merosi nashriyoti. 2007.
2. Lapasov J. Badiy matn va lisoniy tahlil.- T.: O‘qituvchi. 1995
3. Samadov V. Oybekning til mahorati. – T.: TDPI, 1981
4. Doniyorov H., Yo‘ldoshev B. Adabiy til va badiy stil. – T.: Fan, 1988.
5. Vinogradov V.V . O yazike xudojestvennoy literaturi. M.: 1999.

<sup>1</sup> Кожевникова Н.А. Избранные работы по языку художественной литературы. - М.2011

6. Kojin A.N. Vvedeniyu v teoriyu xudojestvennoy rechi. – M.2013.
7. G‘afurov I. Cho‘lponning til va uslub nazokati // www.ziyouz.uz
8. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva // www.studfiles.net
9. Tamarchenko N.D. Teoreticheskaya poetika: ponyatiya i opredeleniya //www.gumer.info

### **Mavzu yuzasidan test savollari**

1. Dialog va monologlar qaysi janrdagi asarlarda uchramaydi?
  - A. Roman, tragediya
  - V. Qissa, masnaviy
  - S. Tuyuq, fard
  - D. Masnaviy, g‘azal
2. Fikrni ixcham shaklda, lo‘nda va aniq ifodalash nima deyiladi?
  - A. Lakonizm
  - V. Ko‘chim
  - S. Kolliziya
  - D. Grotesk
3. Badiiy asar tilidagi arxaizmlar?
  - A. Talaffuz jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlar.
  - B. Tilda ilgari mavjud bo‘lmagan yangi so‘z va iboralar
  - C. Bugungi kunda o‘z muqobiliga ega bo‘lgan eskirgan so‘zlar
  - D. Jonli so‘zlashuv tilida ishlatilmaydigan eskirgan so‘z va iboralar.
4. Dramatik asarlarda asar ishtirokchilarining tashqi qiyofasi, yoshi, hatti-harakati haqida muallif tomonidan beriladigan izohlar nima deb ataladi?

- A. Replika
- V. Remarka
- S. Ramz
- D. Aforizm

5. Mazmunni izchil kuchaytirib borishga asoslangan stilistik figura ko'rsatilgan javobni belgilang.

- A. Gradatsiya
- B. Tajnis
- S. Anafora
- D. Oksyumoron

6. So'z yoki so'zlar guruhining misra yoki band boshida takrorlanishi nima deyiladi?

- A. Sifatlash
- V. Mubolag'a
- S. Anafora
- D. Annotatsiya

## ADABIY TUR VA JANRLAR

*Adabiy tur, adabiy janr, epos, lirika, drama, roman, tarixiy roman, falsafiy roman, qissa, hikoya, ocherk, tragediya, komediya.*

Adabiy asarlar shakl jihatidan rang-barangdir, bu esa ularni alohida guruhlarga ajratib o‘rganishni taqozo qiladi. Adabiyotni birinchi bo‘lib Arastu (er.av. 384-322 yillar) o‘zining «Poetika» asarida epos, lirika, drama kabi uch turga ajratib ko‘rsatgan<sup>1</sup>.

Adabiy turlar janrlardan tarkib topadi. Janr» fransuzcha so‘z bo‘lib, «tur», «jins» degan ma’noni anglatadi. Adabiy turlar birlaridan, avvalo, voqelikni gavdalantirish usuliga ko‘ra farqlanadi. Epos voqeani, lirika inson ruhiy holatini, drama kishi xarakterini gavdalantiradi. Epos so‘zlashuv nutqiga yaqin bir tarzda yozilsa, lirika misra, qofiya, bandga asoslanadi. Drama dialog va monologlardan tashkil topadi.

**Epos** yunoncha so‘z bo‘lib, yeros «so‘z», «nutq», «hikoya» degan ma’noni anglatadi. Epos xalq ijodiyotiga mansub yirik hajmli asar. Masalan, “Alpomish” qahramonlik eposi. Roman, qissa, hikoya, ocherk, feleton epik tur janrlari hisoblanadi.

**Lirika** (yunoncha so‘z bo‘lib, «lira jo‘rligida aytish» demakdir). She’riy asarlarda musiqiy ohang, ritm mavjud bo‘ladi. G‘azal, ruboiy, tuyuq, fard, muxammas, musaddas, qasida, chiston kabilar Sharq mumtoz lirik janrlari hisoblanadi. Ularda vafodorlik, sevgi-muhabbat, insoniylik, do‘stlik, hayot haqidagi dard va iztiroblar aks ettiriladi.

**«Drama»** yunoncha «harakat» degan ma’noni anglatadi. Dramatik asarlar sahna uchun yaratiladi. Ularning ilk namunalari eramizdan oldin yaratilgan. Tragediya, komediya, opera, balet kabilar dramatik tur janrlari hisoblanadi. Esxil, Sofokl, Evripid, Shekspir singari ijodkorlarning asarlari tragediyaning yuksak namunalaridir. O‘zbek adabiyotida Behbudiyning “Padarkush”, Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug‘bek» tragediyalari ma’lum va mashhurdir. Komediya “Quvnoq kishilar qo‘shig‘i” degan ma’noni bildiradi. Aristofanning «Chavandozlar», «Burgutlar», Shekspirning «Qiyiq qizning quyulishi», Molerning «Don Juan», Gogolning

<sup>1</sup> Арасту. Поэтика. Аҳлоқи қабир.-Т.: Янги аср авлоди. 2004// [www.kitobxon.com](http://www.kitobxon.com)

«Revizor», Hamzaning «Maysaraning ishi» kabi komediyalari mavjud.

### **Adabiyotlar va elektron resurslar**

1. Adabiy tur va janrlar. 3 jildlik. Lirika, epos, drama.-T.: Fan. 1992.
2. Fitrat. Adabiyot qoidalari.-T.: 1995.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyev M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. -T.: Akademnashr. 2010.
4. Arastu. Poetika. Ahloqi kabir. - T.: Yangi asr avlodi. 2004 // [www.kitobxon.com](http://www.kitobxon.com)
5. Krupchanov L.M. Teoriya literaturi. Uchebnik. -M.: Flinta, 2012 // [www.litmir.me](http://www.litmir.me)
6. Tuychiyev G.U. Poetika» Aristotelya i vzglyadi Abu Rayxana Biruni na literaturu // [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)

### **Mavzu yuzasidan test savollari**

1. Afsona va rivoyatlardan qaysi janrdagi asarlarda foydalanib bo‘lmaydi.

- A. Doston, qissa
- V. Roman, masnaviy
- S. Fard chiston
- D. She’riy roman, ertak

2. Quyidagi she’r janrini belgilang.

*Bu gulshan ichraki yo‘qtur baqo guliga sabot,  
Ajab saodat erur, yaxshilik bila chiqsa ot (Alisher Navoiy)*

- A. Masnaviy
- V. Fard
- S. Qit’a
- D. Murabba’

3. Ham she’riy shakl, ham janrni bildiruvchi atama qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. Roman
- V. Matla'
- S. Maqta'
- D. Masnaviy

4. Devon tuzish an'anasiga binoan qaysi janr alifbo tartibida devonga birinchi kiritiladi.

- A. Ruboiy
- V. G'azal
- S. Tuyuq
- D. Muxammas

5. Shekspir tragediyalarini tarjima qilgan mutarjimni aniqlang.

- A. M.Mirzo.
- V. I.G‘afurov.
- S. Jamol Kamol
- D. S.Said.

6. Bir necha syujet tarmoqlariga ega bo‘ladigan epik va liro-epik asarlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. Qasida, ruboiy, mustazod
- V. Qissa, felton, murabba'
- S. Masnaviy, roman, doston
- D. Hikoya, esse, qit'a

## SHE'R TUZILISHI

*Sillabik, metrik, sillabo-tonik she'r tizimi, vazn, turoq, ritm, qofiya, radi, lafziy va ma'naviy san'atlar.*

She'riy nutq – murakkab, serqirra, serjilo, obrazli nutq demakdir. Ritm, musiqiylik, ohangrabo, jozibadorlik - she'riy nutqqa xos xususiyatlardir. She'riyat - poeziya dunyoni anglashning o'zgacha usuli va inson qalbining ko'zgusidir<sup>1</sup>

Jahon adabiyotida **cillabik, metrik, sillabo-tonik kabi** she'riy tizimlar mavjud. Bu tizimlardan aruz, barmoq, erkin vazn turlari kelib chiqadi.

Barmoq vazni misralardagi bo'g'inlarning muayyan miqdori, bir xil turoqlarning o'ziga xos tartibda takrorlanishiga asoslanadi. Aruz vazni hijolarning uzun yoki qisqaligi hamda ruknlar takroridan iborat.

Erkin vazn ritmik birlik va intonasion tugallikka ega bo'ladi. Asosan Yevropa she'riyatida keng tarqalgan va o'zbek she'riyatiga ham ta'sir qilgan.

She'riyat ohang, ritm, bo'g'in, turoq, vazn, qofiya, band, ko'chimlar, poetik figuralar, badiiy san'atlar, fonetik usullar kabi atamalar bilan bog'liq. She'rdagi eng kichik ritmik bo'lak **bo'g'in** yoki **hijo**, she'rning alohida satri **misra**, mazmun va ritmik-intonasion jihatdan tugallangan bo'lagi **band** deyiladi. Band she'r musiqiyligi shakllanadigan va ro'yobga chiqadigan asosiy maydon hisoblanadi.

Shoir lirik ifodaning ta'sirchanligini ta'minlashda til vositalardan unumli foydalanadi. She'riy san'atlar – badiiylikning muhim va ta'sirchan vositasi hisoblanadi. Ular lafziy va ma'naviy san'atlarga bo'linadi.

---

<sup>1</sup> Высказывания, афоризмы и цитаты Гюстава Флобера //www.wisdoms.ru

## **Adabiyotlar va elektron resurslar**

1. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. –T.: «O'qituvchi» 1996.
2. Xojahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. –T.1998.
3. To'ychiev U. O'zbek she'r sistemalari. –T.: «Fan», 1981.
4. Frolov D.V. Klassicheskiy arabskiy stix. Istorya i teoriya aruza. –M.: 1991.
5. Rustamov A. Qofiya nima? –T.: «Fan», 1976.
6. Shermurodov T. She'r vaznining tahliliy tamoyillari // www.e-adabiyot.uz
7. Jirmunskiy V.M. Teoriya stixa. -M. 1975 // www.twirpx.com
8. Tomashhevskiy B.V. Teoriya literaturi. Poetika. M.: Aspekt-Press, 1999//www.alleng.ru

## **Mavzu yuzasidan test savollari**

1. Bandlaridagi misralar soni turlicha bo'lgan she'rlar nima deb ataladi?
  - A. Musammat she'rlar
  - V. Astrofik she'rlar
  - S. Getrometrik she'rlar
  - D. Aruz tizimidagi she'rlar
2. She'riy nutqni tashkil etuvchi bo'lak (misra)larning teng o'lchovliligi nima deyiladi?
  - A. Inversiya
  - V. Izometriya
  - S. Apostrofa
  - D. Vazn
3. Besh misradan iborat bo'lib, birinchi va uchinchi misralari besh hijoli, ikkinchi, to'rtinchi va beshinchi misralari yetti hijoli bo'lishi shart bo'lgan she'r turini aniqlang.

- A. Daktil
- V. Tanka
- S. Motto
- D. Muxammas

4. Eng kichik poetik birlikni toping

- A. Misra
- V. Qit'a
- S. Ruboiy
- D. Bayt

5. Arab tilida - «otning orqasiga mingashib, ergashib boruvchi» ma'nosini bildiruvchi she'riy unsur qanday nomlanadi?

- A. Qofiya
- V. Radif
- S. O‘xshatish
- D. Majoz

6. Ruboiy janri quyidagi vaznlardan qaysi birida yoziladi

- A. Ramali musammani maqsur
- V. Hajaz bahrining ahram va ahrab shajarasida
- S. Hajazi musaddasi mahzuf
- D. Rajazi musammani solim

## ADABIY YO‘NALISH VA MAKTABLAR

***Metod, uslub, romantizm, realizm, adabiy yo‘nalish, klassisizm, modernizm, naturalizm, sentimentalizm, simvolizm***

San’at va adabiyotda hayot hodisalarini gavdalantirishning umumiy va farqli tomonlari mavjud bo‘lib, ular metod, uslub, adabiy yo‘nalish va maktab kabi badiiy hodisalarini yuzaga keltiradi.

Metod hayot xaqidagi konsepsiya, hayotni aks ettirishning umumiy tamoyili, uslub metodning konkret badiiy ifodasi hisobladi. Ilmiy adabiyotlarda realizm va romantizm kabi ijodiy metodlar ajratilgan.

**Romantizm metodi** hayot haqidagi, inson to‘g‘risidagi orzular ifodasidir. Bu metodda yaratilgan asarlarda xayoliy voqealar, orzulardagi obrazlar asosiy o‘rin tutadi.

**Realizm metodining o‘ziga xos xususiyati** hayot hodisalarini bor bo‘yi bilan, real ko‘rsatishdan iborat.

XX asr boshida amerikalik olim Uilson Alvin Bentli bir necha yil davomida olib borgan kuzatish va tajribalari asosida, butun yer yuzini qor qoplasa-da, hech bir qor zarrasi shaklan bir-birini takrorlamasligi, har biri o‘ziga xos dizayn durdonasi ekanini isbotlagan edi<sup>1</sup>. Bu haqiqatni yozuvchi va shoirlarga ham tatbiq qilsak, har bir san’atkorning olami - hayotiy tajribasi, bilim darajasi, didi, go‘zallikni ko‘ra bilishi, tasavvuri, xayolot dunyosi, qalb ko‘zi o‘zigagina tegishlidir va ana shu o‘ziga xoslik, individuallik - **uslub** deyiladi.

Sharq mutafakkiri, shoh va shoir Boburning “Qachonki ko‘rgaysen mening so‘zumni, so‘zumni o‘qib anglagaysen o‘zumni” kabi misralarida aynan har bir ijodkorning o‘ziga xos uslubi, voqelik va insonni idrok qila olish tarzi borligi haqida fikr bildirilgan. Demak, uslub orqali ijodkor dunyosi: uning xayoloti, tasavvuri, bilimi, iqtidori, shaxsiyati - butun borlig‘i namoyon bo‘ladi. Masalan, Oybek uslubiga epik kenglik, peyzaj tasviriga boylik xos bo‘lsa, Abdulla Qahhor uslubi qisqalik, voqeani qiziq, kutilmagan tarzda boshlanishi bilan farq qiladi, L.Tolstoy uslubi esa kishilar ruhiyati tahlili sohasida o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

---

<sup>1</sup> [www.lookatme.ru/flow/posts/photo-radar/61848-uilson-bentli-i-ego-snezhinki](http://www.lookatme.ru/flow/posts/photo-radar/61848-uilson-bentli-i-ego-snezhinki)

Metod va uslub kesishgan nuqtada adabiy yo‘nalish vujudga keladi.<sup>1</sup> Klassisizm, barokko, naturalizm, simvolizm, sentimentalizm, modernizm va boshqa shu kabi adabiy yo‘nalishlar mavjud.

Adabiy maktab – badiiy asarni tadqiq qilish usuliga ko‘ra tipologik xususiyatlarga ega bo‘lgan bir guruh olimlar va ijodkorlarning birlashuvi. Shunga ko‘ra adabiy maktablar mifologik, germenevtik, qiyosiy-tarixiy, madaniy-tarixiy, biografik kabi turlarga bo‘linadi. Har bir maktab o‘z asoschilarini, tadqiqot usuli va nazariy konsepsiyasiga ega.

### **Adabiyotlar va elektron resurslar**

1. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Muharrir”, 2011.
2. Andrey Belyi Simvolizm kak miroponimanie. – M.1994.
3. To‘ychiyev Sh. Ijodkor dunyoqarashi va badiiy uslub. – T.: Akademiya, 2009.
4. Nikolayeva P.A. Akademicheskie shkoli v russkom literaturovedenii. – M.: Nauka, 1975 // www.twirpx.com
5. Jirmunskiy V.M. Sravnitelnoe literaturovedenie. Vostok i Zapad // www.twirpx.com
6. Literaturnie napravleniya i techeniya // www.scribble.su

### **Mavzu yuzasidan test savollari**

1.Bualoning “She’riy san’at” asarida qaysi yo‘nalishning adabiy-estetik tamoyillari bayon etilgan?

- A. Klassisizmning
- V. Romantizmning
- S. Realizmning
- D. Sentimentalizmning

2. «Germenevtika» nima?

---

<sup>1</sup> Курунов Д. Адабиётшуносликка кириш. -Т.: Халқ мероси нашриёти. 2007. -Б.211

- A. Ijodiy metod
- V. Falsafiy g‘oya
- S. Uslubiy yo‘nalish
- D. Talqin nazariyasi

3.Modern yo‘nalishda ijod qilayotgan shoirlarni aniqlang.

- A. Mirtemir, M.Shayxzoda.
- V. B.Ro‘zimuhammad, Faxriyor.
- S. S.Zunnunova, Zulfiya.
- D. Cho‘lpon, Usmon Nosir.

4. XVI-XVIII asrlarda Yevropa adabiyotida yuzaga kelgan adabiy yo‘nalish nomi?

- A. Naturalizm
- V. Realizm
- S. Barokko
- D. Romantizm

5. Asarning nomi ham, bosh qahramon ismi ham ramziy ma’noda yozilgan qissa qaysi javobda ko‘rsatilgan?

- A. “Istefo”
- B. “Maymun yetaklagan odam”
- S. “Oromkursi”
- D. “So‘ngi o‘q”

6. Qaysi adabiy maktab mohiyatan sayyor syujetlar, o‘xshash motiv va obrazlar nazariyasiga tayanadi?

- A. Biografik maktab
- V. Mifologik maktab
- S.Tarixiy-qiyosiy maktab
- D.Tarixiy madaniy maktab

## BADIY ADABIYOT VA ADABIY JARAYON

*Adabiy jarayon, bugungi proza va poeziya, dramaturgiya, adabiy tanqidiy maqolalar, adabiy tanqid, taqriz, baho, kitobxon reaksiyasi adabiyotshunosligi*

Adabiy jarayon — millat, mamlakat, mintaqa va dunyoning butun tarixida yoki muayyan davridagi badiiy adabiyotning shakllanishi, takomili yoki inqirozi bilan bog‘liq xodisalarni o‘z tarkibiga olgan tarixiy jarayon. Adabiy jarayon muayyan davrda yaratilgan badiiy merosning eng yaxshi namunalaridan tortib, yozib qoldirilgan ijodiy mashq ko‘rinishidagi asarlar, ijodkorlar orasidagi yozishmalargacha o‘z qamroviga oladi. Adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid kabi adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, adabiy aloqalar, so‘z san’atining boshqa san’at va fan sohalari bilan munosabatlari ham adabiy jarayon ob’ekti hisoblanadi.

Adabiy jarayondagi yangiliklar ommaviy axborot vositalarida doimiy yoritilib boriladi. Bular kitobxonni nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki jahon adabiyotida kechayotgan yangilanishlardan ham boxabar qiladi. Ziyoruz.uz, kitobxon.com, ijod.uz, sharx.uz, e-adabiyot.uz kabi veb sahifalar orqali bugungi proza va poeziya, dramaturgiya, adabiy-tanqidiy maqolalar haqida ancha ma’lumot olish mumkin.

Badiiy asar tahlili adabiy jarayonning, xususan adabiy tanqidning muhim qirralaridan biridir. Asarni anglash, tushunish uchun nazariy jihatdan yetarlicha bilimga ega bo‘lish kerak. Har qanday kitobxon badiiy asarni tahlil qilar ekan, bevosita adabiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi.

Kitobxonning matnga e’tibori va talqini qaysi tasavvurlardan kelib chiqadi? Uning adabiyotni anglash yo‘llari nimalardan iborat? Bu savollarning barchasi adabiy jarayonda «kitobxon reaksiyasi adabiyotshunosligi»ni vujudga keltiradi (reader-response criticism)<sup>1</sup>. Masalan, g‘azal tahlilida faqatgina nima aytilgani bilan emas, nima aytilmay qolgani bilan ham qiziqish lozim. Aynan o‘sha g‘azalda aytilmay qolgan fikr, misra, bayt janrning o‘ziga xosligini ta’minlashi,

<sup>1</sup> Каллер Джонатан. Теория литературы. Краткое введение. - М.: Астрель ACT, 2006 // [www.twirpx.com](http://www.twirpx.com)

bir qancha bahs-munozaralarga sabab bo‘lishi mumkin. E.Xemunguey ham badiiy asarni muz parchasiga (aysberg) qiyos qilgan, qaysidir qismi ko‘rinadi, asosi-mag‘zi esa suv tagida yashirin bo‘ladi<sup>1</sup>.

### **Adabiyotlar va elektron resurslar**

1. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.
2. Mirqosimova M.M. Hozirgi o‘zbek she’riyatining taraqqiyot tendensiyalari. Ilmiy to‘plam. –T.: 2007.
3. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T.: Ma’naviyat. 2000.
4. Karimov H. Istiqlol davri she’riyati. Toshkent. «Zarqalam». 2005.
5. Rasulov A. Tanqid, tahlil, talqin. –T.: Fan. 2006.
6. Rasulov A. Iste’dod va e’tiqod. – T.: Sharq, 2004.
7. Sodiqov S. Roman va tanqid. – T.: Fan, 2008
8. Suvon Meli Adabiy tanqid: bugun va ertaga (davra suhbati) www // ziyouz.uz

### **Mavzu yuzasidan test savollari**

1. Hozirgi adabiy jarayon haqida ma’lumot beruvchi veb- sahifalarni ko‘rsating.

- A. www. gov.uz, www. sharx.uz  
V. www. ziyouz.uz, www. ijod.uz  
S. www. ijod.uz, www. ziyonet.uz  
D. www. kitob.uz, www. kitobxon.uz

2. Cho‘lponshunos olimlar qatorini ko‘rsating

- A. B.Nazarov, Yu.Sultonov  
V. O.Sharafiddinov, N Karimov  
S. U.Normatov, A.qayumov  
D. N.Xudoyberganov, I.Haqqul

3. Nazar Eshonqul hikoyalarini toping?

---

<sup>1</sup> Борев Ю. Эстетика: Учебник // www.gumer.info

- A. “G‘ulom gardish”, “Quyun”
- B. “Chaqmoq izidan”, “Tobut”
- S. “Oq padar, “Qora quyosh”
- D. “Maymun yetaklagan odam”, “Xaroba shahar suvrati”

4. Modern adabiyot namunalarini aniqlang

- A. “Lolazor”, “Kapalaklar o‘yini”.
- B. “Muqaddas”, “Degrez o‘g‘li”.
- S. “Ufq”, “Chinor”.
- D. “Sabo va Samandar”, “Isyon va itoat”.

5. Yangi kitoblar bilan qaysi veb sahifa orqali tanishish mumkin?

- A. www. sharx.uz
- B. www. zyouz.uz
- S. www. ijod.uz
- D. www. kitobxon.com

6. “Men o‘zbek xalqiga haykal qo‘yaman! Tog‘ay Murodning ushbu fikri uning qaysi asaridan olingan?

- A. “Ot kishnagan oqshom”
- V. “Oydinda yurgan odamlar”
- S. “Otamdan qolgan dalalar”
- D. “Momo yer qo‘shig‘i”

## INTERFAOL TOPSHIRIQLAR

1. Badiiy asardan hikmatli fikr, shohbayt yoki maqol tanlab  
FSMU metodi orqali tahlil qiling.



### NAMUNA:

#### **ADABIYOT YASHASA – MILLAT YASHAR** (Cho‘lpon, “Adabiyot nadir” maqolasidan)

**F** ----- *Adabiyot yashasa - millat yashar!*

**S** ----- *chunki adabiyot millatning ko‘zgusi*

**M** ---- *barcha milliy adabiyot durdonalari:*  
*Navoiy, Pushkin, Shekspir asarlari*

**U**----- *adabiyot millatning ravnaqi, adabiyotlar orqali xalqlar biri-biriga taniladi.*

**2.** “Venn” diagrammasi asosida o‘qigan asaringiz qahramonlarining o‘xhash va farqli jihatlarini tahlil qiling.

**Namuna: Alisher Navoiy “Xamsa” asaridan**



**3.** Siz o‘qigan asardagi asosiy qahramonning kuchli, zaif tomonlari, imkoniyatlari va oldida turgan to‘siqlarni “SWOT” metodi orqali tahlil qiling:

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

### NAMUNA:

#### Otabek- ijobiy obraz sifatida:

S – aqli, mard inson

W –ko‘ngli bo‘shligi, ishonuvchanligi

O – baxtli bo‘lish imkoni bor edi

T – Homid va Zaynabning hatti-harakatlari

#### Homid – salbiy obraz sifatida:

S – qo‘rqmas, jasur boshqaruvchi

W –nafsi, yovuzlik va jaholatga yuz tutgani

O – birovning baxtiga ko‘z olaytirmsa, tirik qolishi mumkin edi

T – ma’naviy kambag‘allik, nafs va hirs

**4.** Badiiy asarni o‘qib o‘zlashtirish masalasini «Xulosalash» (*rezyume, veer*) metodi orqali ochib bering.

BADIY KITOB O'QISH					
uyda		ONLAYN tartibda internet orqali		kutubxonada	
afz alli- gi	ka mchili- gi	afz alli- gi	kamc hili- gi	afz alli- gi	ka mchili- gi

Xulosa:

1. Siz o'qigan kitobdagi badiiy obraz turlarini quyidagi jadval asosida tahlil qiling!

*Хаёлий -  
фантастик  
образлар*

*Сатирик  
образлар*

*Тарихий  
образлар*

*Бадий  
образ  
турлари*

*Афсонавий  
образлар*

*Символик  
образлар*

*Мифологик  
образлар*

**6.** Tanlov asosidagi badiiy asardan maxsus leksik resurslarni toping va quyidagi grafik organayzerga joylashtiring.




**2.** Quyidagi tushunchalarni ramziy ifodalang, nimaga o‘xshatsangiz rasmini chizing va izohlang:

*VATAN, ONA, ODAMIYLIK, JAHOLAT, SADOQAT, EZGULIK,  
YoVUZLIK.*

NAMUNA:

Men EZGULIKni quyoshga o‘xshataman, chunki EZGULIK - yorug‘lik manbai, bitmas tunganmas xazina.



## **KEYS TOPSHIRIQLAR**

### **1-KEYS:**

**Abdulla Qahhorning “Dahshat”** hikoyasidagi maymun obrazi asarda to‘g‘ri keltirilganmi? Agar maymun bilan bog‘liq epizod bo‘lidanida asarning syujet liniyasi qanday bo‘lishi mumkin edi?

#### **Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang.
- Muammoning yechimi sizning nazaringizda qay darajada bo‘lishi mumkin. Fikringiz?

### **2-KEYS:**

Lirik asarlarda muallif nutqining yetakchiligi, personajlar nutqining deyarli berilmashligi sabablari nimada?

#### **Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang
- Lirik turning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlang? Ruhiyat talqini xaqidagi fikrlaringiz?


### **3-KEYS:**

«Shaytanat» asarida Asadbekning hayotga alamzadalik bilan qarashi sabablari nimada deb o‘ylaysiz. Asarning xarakterli xususiyatini quyidagilardan qay biri ko‘proq belgilaydi-

- nomlanishi;
- syujet;
- qahramonlarning hatti xarakati;
- badiiy asar tili;

### **4-KEYS:**

## “Ўткан кунлар”



**АБДУЛЛА  
ҚОДИРИЙ  
( 1894-1938)**

«O'tgan kunlar» romanida nima uchun Zaynab qotillikka qo'l urdi? Asardagi muammoning yechimi boshqacha bo'lishi mumkinmidi? Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablar va hal etish yo'llarini jadval asosida izohlang.

Muammo turi	Kelib chiqish sabablari	Hal etish yo'llari

### 5-KEYS

Ushbu rasmlar ma'nosidan kelib chiqib, 4 ta KEYS topshiriqlarini tuzing!

Изтироб исканжасида



Бахтсиз келин

Пок қалб тимсоли



Орзуси армон бўлган она



### 6-KEYS:

**Adabiyot atomdan kuchli** bo‘lishi mumkinmi? Abdulla Qahhorning mashhur «*Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o’tin yorishga sarflash kerak emas*» fikrida nima nazarda tutilgan?

#### Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang.

- Muammoning yechimi sizning nazaringizda qay darajada bo‘lishi mumkin. Fikringiz?

## BADIY ASAR TAHLILI

### ***EPIK TURGA MANSUB ASARNI TAHLIL QILING!***

1. Muallifning qisqacha biografiyasi
2. Asar nomi, janri i muallifning ijodiy metodi (*janri: roman yoki qissa, metodi: realizm yoki romantizm*).
3. Asarning tematik tasnifi (*tarixiy, fantastik, biografik, detektiv va h.k.*)
4. Asar mavzusi (*kitob nima haqida?*)
5. Asarning asosiy g‘oyasi va leytmotivi.
6. Asar sarlavhasi haqidagi fikringiz (*nima uchun muallif aynan shu mavzuni tanlagan?*)
9. Asarning lingvistik tahlili:
  - A) frazeologizmlarni toping (5-6 ta)
  - V) kasb- hunarga oid so‘zlar (7-8 ta)
  - S) toponimlar - joy nomlari (5-6 ta)
10. Asardagi milliy kalorit (*qanday milliy an'analar, udumlar aks etganligi*)
11. Asardagi tugun.
12. Badiiy asardagi konflikt turi (*inson-inson, inson – texnika, inson- tabiat, inson-jamiyat va h.k.*)
13. Asar kulminatsiyasi.
14. Asardagi yechim (*yechim mavjud bo‘lmasa, sizning taklifingiz*)
15. Asarda mavjud folklor namunalari (*maqol, mif, ertak, afsona va hk.*)
16. Asardagi eng yaxshi aforizm yoki falsafiy mushohadalar (5-6 ta)
17. Asardan olgan taasurotingiz. Sizga ma’qul bo‘lgan va bo‘lмаган jihatlar.

**USHBU O'QUV QO'LLANMADAN OLGAN  
TAASUROTLARINGIZNI  
B/B/B USULI ORQALI OChIB BERING**

Б	• Биламан
БХ	• Билишни хоҳлайман
Б	• Билдим

**B/B/B JADVALI**

<b>Bilardim</b>	<b>Bilishni xohlayman</b>	<b>Bilib oldim</b>

## JAHON ADABIYOTSHUNOSLARI

**ARASTU ( er.av.384-322)** – qadimgi yunon faylasufi. Deyarli barcha sohaga, jumladan adabiyotga oid asarlar muallifi. O‘zining “Poetika” asarida birinchi bo‘lib adabiyotni epos, lirika va drama kabi turlarga ajratgan va har biriga xos xususiyatlarni ochib bergan. Ushbu asar M.Mahmudov tomonidan ona tilimizga tarjima qilingan.

**BAXTIN** Mixail Mixaylovich (1895-1975)- rus faylasufi va adabiyotshunosi. F.Rable va F.M.Dostoyevskiy ijodi tadqiqotchisi. “So‘z san’ati estetikasi”, “Dostoyevskiy ijodi masalalari” kabi asarlar muallifi. Badiiy nutq poetikasi, polifonik roman, xronotop - makon va zamon ilmiy nazariyasi asoschisi. Ayrim ilmiy asarlari adabiyotshunos U.Jo‘raqulov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

**BELINSKIY** Vissarion Grigorevich(1811-1848)- rus faylasufi, yozuvchisi va XIXasrning eng taniqli adabiy tanqidchilaridan biri. Naturalizm yo‘nalishi nazariyotchisi, “Adabiy orzular”, “Rus adabiyotiga nazar” kabi bir qancha ilmiy asarlar muallifi. “Adabiy orzular” asari adabiyotshunos B.Qosimov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

**BERTELS** Yevgeniy Eduardovich (1890-1957) – rus eronshunos va navoiyshunos olimi. «Firdavsiy», «Navoiy va Attor», «Navoiy va Jomiy», «Tasavvuf va tasavvuf adabiyoti», «Nizomiy», «Jomiy» kabi o‘nlab ilmiy asarlar muallifi. Fan tarixida birinchi bo‘lib Yevropa olimlarining “Navoiy forsiy adabiyotning taqlidchisi” degan metodologik xatosini o‘z ilmiy asarlari bilan isbotlagan. Deyarli barcha asarlari tilshunos va adabiyotshunos olim I.Mirzaev tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan.

**BOREV** Yuriy Borisovich (1925) - akademik, adabiy tanqidchi, adabiyotshunos, tarjimon. «Akademik daftalarlar» jurnalining bosh muharriri. Madaniyatshunoslik, semiotika, adabiyotshunoslik, ritorika, poetika, germenevtika bo‘yicha 500 dan ortiq ilmiy tadqiqotlar, jumladan 52 ta monografiya muallifi. Uning ilmiy asarlari dunyoning 41 ta tiliga tarjima qilingan. 2002 yilda falsafiy-nazariy muammolarni qamrab olgan “Estetika”darsligi nashr qilingan.

**BUALO** Nikola (1636-1711) – fransuz shoiri va adabiyotshunosi, klassisizm yo‘nalishi nazariyotchisi. Uning “Poetik san’at” asari XVII-XVIII asr Yevropa adabiyotining estetik tafakkuri va rivojida muhim rol o‘ynagan.

**VESELOVSKIY** Aleksandr Nikolaevich (1838-1906) – rus adabiyotshunosi, akademik. Tarixiy poetika nazariyasi asoschisi, qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslik bo‘yicha mutaxassis sifatida slavyan, Vizantiya, g‘arbiy Yevropa xalqlari adabiyotini jahon adabiyoti kontekstida o‘rgangan. “Roman va qissa tarixi”, “Tarixiy poetika” kabi ilmiy asarlar muallifi.

**GADAMER** Xans Georg(1900-2002) - nemis faylasufi va adabiyotshunosi. Germenevtika - talqin san’ati nazariyasi asoschisi. «Haqiqat va metod», «Go‘zallikning dolzarbligi» kabi asarlar muallifi. Bugungi kunda taniqli adabiyotshunos Bahodir Karimov germanevtika bo‘yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirib kelmoqda.

**JIRMUNSKIY** Viktor Maksimovich (1891-1971) rus tilshunosi va adabiyotshunosi, horij va o‘zbek adabiyoti tadqiqotchisi. Turli xalqlar adabiyoti tipologiyasini, jumladan «Odisseya» va «Alpomish» asarini qiyosan o‘rganish asosida sayyor (ko‘chib yuruvchi) syujetlar nazariyasiga asos solgan. «Turkiy epos», «Qofiya tarixi va nazariyasi», «Adabiyot nazariyasi» kabi ilmiy asarlar muallifi.

**IVANOV** Sergey Nikolaevich (1922-1999) - rus sharqshunos olimi va tarjimoni. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan va madaniyat arbobi. Mumtoz adabiyot durdonalarini o‘zbek, ozarbayjon, turkman, qirg‘iz, turk, tatar va boshqa tillardan rus tiliga tarjima qilgan. Alisher Navoiyning g‘azallari va «Lison ut-tayr» asari tadqiqotchisi va tarjimoni. «XV—XX asrlar o‘zbek mumtoz lirkasi», «Yusuf Balasog‘uniy va Qutadg‘u bilig» kabi bir qancha tarjima va ilmiy asarlar muallifi.

**KALLER** Jonatan (1944)- amerikalik madaniyatshunos va adabiyotshunos. Dunyoga mashhur Garvard universitetida tahsil olgan. Adabiyot nazariyasi bo‘yicha bir qancha ilmiy asarlar, jumladan, «Talqin va tafakkur», «Strukturalizm nazariyasi», «Roland Bart», «Ferdinand de Sossyur» kabi ilmiy asarlar muallifi.

**KONRAD** Nikolay Iosifovich 1891-1970) - rus sharqshunos olimi, faylasufi va tarjimoni. Yapon va turkiy xalqlar adabiyotini jahon adabiyoti kontekstida tadqiq qilgan. Adabiy aloqalar va adabiy ta’sir masalalari qiyosiy adabiyotshunoslikning ob’ekti ekanligini nazariy jihatdan asoslab bergen. «G‘arb va Sharq», «Adabiyot va teatr», «Alisher Navoiy va Renesans» kabi ilmiy asarlar muallifi.

**LOTMAN** Yuriy Mixaylovich (1922-1993) - estoniyalik adabiyotshunos olim va tarjimon, struktural va semiotik metod, Tartu (Estoniya) semiotik maktabi asoschilaridan biri. «Badiiy matn strukturasi», «Poetik matn tahlili», «Adabiyotni tipologik o‘rganish» kabi asarlar muallifi. Badiiy asarni mayda unsurlarigacha tahlil va talqin qilish nazariyasini ishlab chiqqan.

**SAMOYLOVICH** Aleksandr Nikolaevich (1889-1938) - Sharq adabiyotiga alohida mehr bilan qaragan rus olimlaridan biri, akademik, turkiy adabiyot bilimdoni, boburshunos. «Men uchun Sharqda bo‘lish, Vasilev orolida (Sankt-Peterburg) bo‘lishdan ko‘ra muhimroq. Men –Majnun, Turkiston –Layli. Tabiatimda musulmonlarga qandaydir yaqinlik bor va men ular bilan tez chiqisha olaman», – deb yozgan olimning sa'y harakatlari natijasida «Turkiy etyudlar», «Xiva poeziyasidan», «Navoiy tuyuqlari», «Imperator Bobur she’riyatidan» kabi yuzlab tadqiqotlar yaratilgan.

**STEBLEVA** Iya Vasilevna (1931)- rus sharqshunosi, o‘zbek mumtoz adabiyotining yetuk tadqiqotchisi va targ‘ibotchisi, boburshunos olima. “Bobur g‘azallari semantikasi” monografiyasini yozish davomida Yu.Lotmanning badiiy asar strukturasi, semantikasi bilan bog‘liq nazariy qarashlariga tayangan, badiiy asar tahlilida ko‘paspektli yondashuvga asoslanib, sistem-funksional, semantik-sintaktik, qiyosiy-chog‘ishtirma, germenevtik va biografik metodlardan unumli foydalangan. “XX asrda Sharq xalqlari adabiyotining o‘rganilishi” nomli asari adabiyotshunos olim I.Mirzaev tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

**TAMARCHENKO** Natan Davidovich (1940-2011) - rus adabiyotshunosi, roman tarixi va poetikasi bo‘yicha mutaxassis. Adabiyotshunoslik bo‘yicha bir qancha, jumladan, ikki jıldan iborat «Adabiyot nazariyasi» darsligi, «M.Baxtinning «So‘z san’ati estetikasi va rus falsafiy filologik an’anasi», «Realistik roman», «Qaxramonlik eposi» «Poetika» kabi ilmiy asarlar va lug‘atlar muallifi.

**TOMASHEVSKIY** Boris Viktorovich (1890-1957)- rus adabiyotshunosi, yozuvchisi va tarjimoni, filolog-matematik, serqirra olim. Poetika, matnshunoslik, she’rshunoslik, fransuz poeziysi, Pushkin ijodi bo‘yicha «Yozuvchi va kitob», «She’r haqida», «Adabiyot nazariyasi» kabi asarlar muallifi. Aslida muhandis-elektrik bo‘lgan olim F.M. Dostoyevskiy, A.P.Chekhov, A.Pushkin asarlarining akademik nashrlarini tayyorlash jarayonida adabiyotga juda qiziqib,

o‘zi ham adabiyotshunos bo‘lishga qaror qilgan. Uning «Adabiyot nazariyasi. Poetika» nomli asari bir necha bor qayta-qayta nashr qilingan.

**XALIZEV** Valentin Yevgenevich (1930-2016) - rus adabiyotshunos olimi. Adabiyotshunoslik, adabiyot nazariyasi va drama bo‘yicha ilmiy-nazariy kitoblar, darslik va o‘quv qo‘llanmalar muallifi. Uning «Adabiyot nazariyasi» darsligi bir qancha Yevropa tillariga tarjima qilingan.

## GLOSSARIY

	<b>o‘zbek</b>	<b>Rus</b>	<b>ta’rifi</b>
1.	Adabiyot	Literatura	keng ma’noda barcha kitob turlari, tor ma’noda og’zaki yoki yozma shakldagi badiiy so‘z san’ati.
2.	Adabiyoshunoslik	Literaturovedenie	badiiy adabiyot haqidagi fan, adabiyot tarixi adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid kabi uchta asosiy tarkibiy qismdan iborat
3.	Adabiyot tarixi	Istoriya literaturi	badiiy adabiyotning tarixiy taraqqiyotini o‘rganadi va o‘rgatadi
4.	Adabiyot nazariyasi	Teoriya literaturi	so‘z san’atining mohiyatini, taraqqiyot qonuniyatini, o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etadi.
5.	Adabiy tanqid	Literaturnaya kritika	adabiy asarni g‘oyaviy badiiy jihatdan tahlil va tahlil etadi, baholaydi
6.	Adabiy yo‘nalish	Literaturnoe napravlenie	hayotni idrok qilish va badiiy ifodalash umumiyligi. Klassizm, sentimentalizm, naturalizm, modernizm va h.k. yo‘nalishlar mavjud
7.	Aruz vazni	Metrika aruz	mumtoz lirik asarlarning vazni, hijolarning uzun-qisqaligiga va muayyan tartibda takrorlanib kelishiga asoslanadi
8.	Aforizm	Aforizm	hikmatli so‘z va iboralar
9.	Badiiy o‘ziga	Xudojestven-	asarning original,

	xoslik	niy stil	qaytarilmas va boshqa asarlarga o‘xshamaydigan xususiyati
10.	Badiiy asar tili	Yazik xudojestvennoy literaturi	badiiy asarlar yoziladigan, ijodkorlar tomonidan sayqallangan poetik til
11.	Badiiy tasvir vositalari	Xudojestvennie priyomi	Badiiy asarning ta’sirchanligi va jozibadorligini ifodalovchi tasvir vositalari: mubolag‘a, antiteza, o‘xshatish, metafora, anafora va h.k.
12.	Barmoq vazni	Sillabicheskaya stixotvornaya sistema	misralardagi bo‘g‘inlar sonining tengligiga asoslanadi
13.	Bibliografiya	Bibliografiya	badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikka oid kitoblarning yozilgan, ko‘chirilgan yoki bosilib chiqqan yili, joyi va muallifiga oid ma’lumotlarning yig‘indisi
14.	Varvarizm	Varvarizm	boshqa tillardan kirib kelgan ajnabiy so‘z va iboralar
15.	Vulgarizm	Vulgarizm	adabiy tilda ishlatilmaydigan dag‘al so‘zlar va noto‘g‘ri tuzilgan jumlalar.
16.	Dialektizm	Dialektizm	ma’lum bir joyning aholisi ishlatadigan shevaga xos so‘z va iboralar.
17.	Dialog	Dialog	badiiy asarda ikki personaj orasida bo‘lgan bahs-munozara, savol-javob, suhbat
18.	Dramatik tur	Dramaticheskiy rod	sahna uchun yaratiladigan badiiy

			asarlar turi: tragediya, komediya, opera, balet kabi janrlardan iborat
19.	Jargon so‘zlar	Jargon	muayyan ijtimoiy tabaqa yoki kishilar guruhi tomonidan ishlataladigan shartli so‘z va iboralar.
20.	Kompozisiya	Kompozisiya	badiiy asarning tuzilishi, voqealar bayonining tartibi, asarning shakliy va mazmuniy bir butunligini ta’minlaydi
21.	Kompozisiya vositalari	Kompozisione sredstva	asar sarlavhasi, epigraf, prolog va epilog, mlirik chekinish, qistirma epizod, peyzaj va h.k. kabilar kompozisiya vositalari hisoblanadi
22.	Lirik tur	Liricheskiy rod	vogelikni inson histuyg‘ulari, ruhiy kechinmalari asosida ifodalovchi g‘azal, ruboiy, tuyuq, qasida kabi she’riy janrlarning umumiy nomi
23.	Liro- epik tur	Liro-epicheskiy rod	nasriy va she’riy usulda yozilgan badiiy asar turi: ballada, she’riy roman va h.k
24.	Mavzu	Tema	tor ma’noda asar sarlavhasi, keng ma’noda, asarda qo‘ylgan masalalar ko‘lami
25.	Mazmun	Soderjanie	asar asosini belgilovchi - g‘oya va tamoyillar
26.	Maqsad	Sel	ijodkorning mualliflik pozisiyasи
27.	Metod	Metod	tadqiq qilish usuli (grekcha «tekshirish»)
28.	Monolog	Monolog	asar qahramonining suhbatdoshiga, o‘ziga, ba’zan kitobxoniga

			qaratilgan nutqi.
29.	Neologizm	Neologizm	fan-texnika bilan bog‘liq bo‘lgan yoki yozuvchi tomonidan yaratilgan yangi so‘zlar.
30.	Obraz	Obraz	voqelikning badiiy ifodasi, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi
31.	Obraz turlari	Vidi obrazov	tarixiy, fantastik, romantik, realistik, afsonaviy, detektiv va h.k. obraz turlari mavjud
32.	Peyzaj	Peyzaj	nabiat manzarasi
33.	Personaj	Personaj	badiiy asardagi oddiy ishtirokchi
34.	Polilog	Polilog	asarda uch va undan ortiq personajlarning bahs-munozaralari, tortishuvi, savol-javobi
35.	Portret	Portret	badiiy asarda qahramonning tashqi qiyofasi, siymosi, yoki individual-psixologik qiyofasi
36.	Prototip	Prototip	adabiy asardagi obrazning yaratilishiga asos bo‘lgan real shaxs
37.	Ritm	Ritm	muayyan bir-biriga teng narsalarning bir xil vaqt birligida takrorlanib turishi
38.	San’at	Iskusstvo	insonning go‘zallik qonuniyatlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati natijasi
39.	San’at turlari	Vidi isskustva	amaliy va badiiy san’atlar: adabiyot, tasviriy san’at, musiqa va h.k.
40.	Syujet	Syujet	epik, lirik yoki dramatik asarning bevosita mazmunini tashkil

			etgan, o'zaro bog'langan va rivojlanib boruvchi voqealar tizimi
41.	Syujet turi: xronikal syujet	Xronikalniy syujet	voqealar tizimi tarixiy va mantiqiy jihatdan birin -ketin ,izchil ko'rsatiladi
42.	Syujet turi: konsentrik syujet	Konsentricheskiy syujet	voqealar tizimi sabab va oqibat tarzida bir markazga jalb etilgan xolda bayon etiladi
43.	Syujet turi: retroispektiv syujet	Retrospektivniy syujet	voqeal rivoji to'xtatilib, tarixga qayta murojaat qilinadi
44.	Syujet turi: assotsiativ syujet	Assotsiativniy syujet	sub'ektiv xis tuyg'ular, xotiralar, tasavvurlar ham aks ettiriladigan, psixologizmga tayangan syujet
45.	Syujet turi: sintetik syujet	Sinteticheskiy syujet	qorishiq syujet, xilma xil tasvir usullariga suyanadi
46.	Syujet unsurlari	Syujetnie elementi	ekspozisiya,tugun, voqeal rivoji, konflikt, kulminatsiya, yechim
47.	Syujet unsuri: ekspozisiya	Ekspozisiya	qahramonning ijtimoiy muhiti, sharoiti, o'rinn joy tasviri
48.	Syujet unsuri: tugun	Zavyazka	voqealar rivojiga turtki bo'ladigan syujet unsuri
49.	Syujet unsuri: voqeal rivoji	Razvitiya sobitiy	tugundan keyin voqealarning birin-ketin rivojlanib borishi
50.	Syujet unsuri: ziddiyat	Konflikt	asardagi obrazlar to'qnashuvi: inson – inson, inson- tabiat, inson-jamiyat,inson-texnika kabi konflikt turlari mavjud
51.	Syujet unsuri: kulminatsiya	Kulminatsiya	badiiy asarda voqelar rivojining eng yuksak cho'qqisi
52.	Syujet unsuri:	Razvyazka	badiiy asardagi asosiy

	yechim		voqealar tizimining yakuni, ziddiyatning badiiy yechimi
53.	Syujetdan tashqari unsur: prolog	prolog	adabiy asarning kirish qismi, muqaddima.
54.	Syujetdan tashqari unsur epilog	Epilog	so‘ngso‘z degan ma’noni anglatadi. Asardagi yakun, xotima.
55.	Xarakter	Xarakter	qahramonning muhim xususiyatlarini aniqlaydigan asosiy belgilar majmua
56.	Xronotop	Xronotop	grekcha chronos — vaqt, zamon, topos — makon degan ma’noni bildiradi, badiiy asarda makon va zamon tushunchasining uyg‘un aks etishi
57.	Epos	Epos	badiiy adabiyotning voqealarni bayoniga, hikoya qilinishiga asoslangan turi: roman, qissa, novella, hikoya, ocherk va h.k. janrlari mavjud
58.	Qofiya	Rifma	she’riy misralarda so‘z va so‘z birikmalarining ohangdosh bo‘lib kelishi
59.	G‘oya	Ideya	badiiy asarda qo‘yilgan va yoritilgan masalar mohiyatidan, xarakterlar talqinidan mantiqiy ravishda kelib chiqadigan xulosa
60.	G‘oyaviylik	Ideynost	Badiiy asarning g‘oyaviy yo‘nalishi, mazmuniy qimmati

## ILOVA



### CHO'LPON<sup>1</sup> (1897-1937)

#### ADABIYOT NADIR?

Adabiyot har bir millatning hisli ko‘ngul tarixining eng qorong‘u xonalarida maishat (tirikchilik)ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan, fayzli til birla taqdir etula olmaydirg‘on bir guldir. Ushbu yashadigimiz muhit doirasinda aning to‘lquni odamning har xil maishatiga qarab o‘zgaradir.

Har sinf, xalqning o‘ziga maxsus ohangi, o‘ziga ta’sir qiladurg‘on zori bo‘lur. Mana shul muhit bo‘shliginda bo‘lgan qat’iy to‘lqunning bir-biriga birlashmagidan har odamga har xil shodliq va yo ko‘b achchiq ta’sir etmagindan odamning ko‘nglida o‘zi bilmasdan o‘rnashub qolg‘on va har vaqt, umrining oxiriga qadar saqlanaturg‘on qayg‘ulanmak va yo ko‘krak kerib qo‘b dam olurday oh urmaklar — hamasi ko‘ngilda har xil rangda, har xil kayfiyatda to‘lub yotqon adabiyot xosasindan sanalur. Kishi ba’zi vaqtida shodlikdan kulur va ba’zi vaqtida ko‘z yoshin to‘kub yig‘lar, oh tortar. Odamning mundog‘ har xil kayfiyatga kirub turmog‘i o‘z ixtiyorinla bo‘lmay, balki maishati yo‘lida har vaqt uchrab turadurg‘on falokatning anga ba’zi vaqtida zulm ko‘rsatmog‘i va ba’zi vaqtida bir yaxshilik ko‘rsatub suyundirmog‘idin kelub — yaxshi ko‘rganda suyunib, yomonliq

<sup>1</sup> Ўзбек адабиётининг атокли намояндаларидан бири Абдулҳамид Сулаймон ўғли Юнусов — Чўлпон 1897 йилда Андижонда зиёли оиласида дунёга келган. «Кеча ва кундуз» романи, шеърий тўпламлар бир қанча, жумладан «Адабиёт надир» каби илмий тадқиқотлар муаллифи.

ko‘rganda yig‘lab — shundog‘ bo‘lub ikki turli o‘zgarub turar, ba’zi vaqtida falak bir odamni qayg‘uga solar, ul o‘zi tushunib, o‘ylab turub, oh tortub yig‘lar. Bu hasratlarni o‘z ichiga sig‘dirolmas. Birovga aytsa, «Voy bechora» deyurmukin, deb o‘z qayg‘usini birovga aytmakka tilar. To‘p to‘g‘ri aytganda u qadar ta’sir qilmas, adabiyot ila aytganda albatta ta’sir qilar. Mening bir oshnamning o‘ldigi xabari kelar. Men hech xafalanmayman. Bir vaqtida maktub kelar, maktubda alarning ko‘rgan kunlari adabiyot ila bunday yozilur:

Gullar bila pok qayg‘uli mahzun boqurdi Ko‘z yoshlarimiz to‘xtamay tun-kun oqurdi. Mana shuni o‘qub albatta bir ta’sir ila alarning qayg‘usiga qo‘sulumiz. Bir bola uxlamasa, alla aytarlar. Bola tez uxbab ketar. Chunki ul andin bir lazzat his qulur. Eski bobolarining bir ma’shuqa uchun Qoshg‘ar taraflariga yayov borganini va yo‘lda o‘g‘rilar tarafidan o‘lturulgani g‘oyat yaxshi ohang bilan aytitur. Ul vaqtida bola ta’sirindan uxbab ketar. Shunga o‘xhash o‘zining shavkat va g‘ayrati ila zamonasida butun dunyoni havor va dahshatga solg‘on jahongirlarning o‘tkazgan kunlarin va davrlarin tarixlarda ko‘rsa va eshitsa har kishi yuragida bir botirliq va bir fidokorlik his etar va qahramonona umidlarda bo‘linur.

Mana shunday qahramonona umid, qahramonona his va qahramonona g‘ayrat —barchalari tarixiy adabiyotning natijasidan boshqa narsa emasdir. Hech to‘xtamasdan harakat qilub turg‘on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir.

Adabiyot yashasa — millat yashar. Adabiyoti o‘limg‘on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur. Muni inkor qilib bo‘lmas. Inkor qilg‘on millat o‘zini inqirozda ekanun bildirur.

Bizdan boshqa millatlarga ko‘z solsak ko‘ramizki, alarning olti yoshdan oltmis yashar qarilarina qadar adabiyotdan bir lazzat olub oxir umriga qadar adabiyot o‘qub eshitmakni vazifai milliyasidan hisob qilur. Mana shuning uchundirki, Ovro‘poning har shahar va qishloqlarida har kun, har hafta adabiyot kechalari qilinur, adabiyot o‘qilur, nutq so‘ylanub xalq ko‘b kirub ta’sirlanurlar. Mana totor qardoshlarimiz yilda bir daf‘a bo‘lsa ham shahar va qishloqlarida «Adabiyot kechalari» qilub xalqg‘a ruh berub ko‘b olqishlar, ofarinlar

oldigini g‘azetalardan o‘qub turmakdamiz. Bizlar esak adabiyotdan lazzat olmak bir tarafda tursun, hatto bobolarimiz va bolxosa «Islom madaniyati» zamoninda katta ro‘l o‘ynag‘on va alarning maishatlarin ko‘rsatgan ta’rix umumiylarni o‘qub anglamoqdin ham ko‘b yiroq turamiz.

Bizni ulamo va eshonlarimiz to‘n kiymakdan, avomlarimiz choyxonalarga chiqub choy ichmakdan va ziylolarimiz esa Ovrupo kiyumliklaridan va qiymatlik papiro‘sleridan lazzat olurlarki, «adabiyot nima?» desang, javobida yuqorida aytilgancha «ya’ni, masalan»dan boshqa javoblari yo‘qdir. Mana shuning uchundirki, kundan-kunga ruhimiz tushub, keladirg‘on istiqbolimizga umidsiz qarab, boshqa millatlar kabi shod va umidli yashamaymiz va bizda shodlik va ruh bo‘limgani uchun bir ishni qilamiz deb endi o‘ylaganimizda o‘y yo‘q — fikrlar chochilub, aqlarimiz parishon bo‘lub ketar.

Adabiyot chin ma’nosi ila o‘lgan, so‘ngan qaralgan, o‘chgan, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg‘on, o‘tkur yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladirk‘on, chang va tuprog‘lar to‘lgan ko‘zlarimizni artub tozalaydirg‘on buloq suvi bo‘lg‘onlikdan bizga g‘oyat kerakdir.

Endi, ey, qardoshlar! Adabiyot o‘quylik. Adiblar yetishdirayluk, «adabiyot kechalari» yasayluk. Ruh, his, tuyg‘u, fikr, ong va o‘y olayluk, bilayluk. Agarda «bayoz» va bema’ni bir-ikki dona kitoblar ila qolsak, mahvu inqiroziy bo‘lurmiz. Yuragimiz kundan-kun toshdan ham qattig‘ bo‘lur. Yurakni eritayluk, ruh berayluk, inqiroz bo‘lmayluk. Menim bu ojizona fikrima qo‘shilaturg‘onlar bo‘lsa adabiyotning foydasi to‘g‘rusinda «Oina» va «Sado»larimizga tarixiy va adabiy maqola va she’rlar yozsunlar, kitoblar tartib bersunlar. Hozirda bizga birdan-bir lozim bo‘lg‘on narsa — adabiyot, adabiyot, adabiyot... (1914)

## **HOZIRGI ADABIY JARAYONGA BIR NAZAR**

### **Adabiy tanqid: bugun va ertaga<sup>1</sup>**

**Bahodir Karimov,**  
*filologiya fanlari doktori, adabiyotshunos olim*

Tanqidchining ishi oson emas. Bu yukni his qilish kerak. Ma’nisiz, tanqiddan tuban “asar”larni do‘ppini hidlab o‘qish, so‘ngra “yozg‘uvchi”ni savalash odamga xushkayfiyat bag‘ishlamaydi. San’at durdonalari haqidagi har qanday adabiy-tanqidiy maqola esa o‘scha badiiy asarlar bilan yonma-yon yashaydi. Tanqidchilik martabasi ko‘p hollarda badiiy asarning poetik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Agar odamni tafakkurga chorlaydigan, qalbga zavq, fikrga quvvat beradigan betakror, go‘zal va umrboqiy asarlar yozilmasa, adabiy tanqid harakatdan to‘xtaydi.

Adabiy jarayon har doim o‘zining original tahlil usullariga, xos dunyoqarashi va uslubiga ega munaqqidlar so‘ziga muhtoj. Davradoshining yangi bosilgan kitobiga taqriz yozish, ora-orada uyuşhtiriladigan yubiley anjumanlarida umumchapakka jo‘r bo‘lish bilan munaqqid bu sohada o‘z qalbi va qiyofasini namoyon eta olmaydi. Munaqqidning talqinlari va tanqidlarini o‘qigan kitobxon badiiy asar sirini, jozibasini, mohiyatini, adabiy haqiqatni anglasin.

Meningcha, ikki sababga ko‘ra adabiy jarayonda paydo bo‘layotgan asarlar e’tiborsiz qoladi. Birinchidan, yangicha badiiy tafakkur mahsulini tushunish va tushuntirishga munaqqidning idrok kuchi yetmasligi mumkin. Ikkinchidan, hikoya atalgan “voqeanova”, she’r deyilgan “darak gap” hech kimga ta’sirsiz, hech qanday sirlarsiz, hammaga ma’lum, jo‘n, tanqid qilishga arzimaydigan narsalar bo‘ladi. Bugungi kunda tarozi pallasini shu ikkinchi sabab bosib ketgandek taassurot bor. Nasrda ramz va ibratdan ko‘ra quruq gapbozlik, oilaviy g‘iybat va g‘urbat mashmashalari, ko‘rpa-yostiq va qo‘ydi-chiqdi intrigalarning bayoni avj oldi. Nosirlarda nazariy bilim yetarli emas, syujet va kompozisiya takomilini rejalashtira olmaydi; ichki manera ustida bosh qotirmaydi, parallelizm va simmetriyaga ahamiyat bermaydi; detalga yuk yuklamaydi, badiiy nutqni ishlamaydi...

---

<sup>1</sup>[www // ziyouz.uz](http://ziyouz.uz)

She’riyatda esa “sen-men” sirash, obrazsizlik, ma’nisizlik, uslubsizlik, tilsizlik, tovushsizlik, rangsizlik, ayniqsa, o‘z yo‘liga ega iste’dodli shoirlarga taqlid kuchaydi.

O‘quvchi badiiy asar egasining musohibi. Yozuvchi uchun yozganini birov o‘qimaganidan kattaroq fojea bo‘lishi mumkinmi? “O‘zim uchun yozaman”, degan kamtarlik ortida manmanlik bor. “Taqnidga e’tibor bermayman”, degan odamning gapi arazli.

Mashhur fransuz munaqqidi Sharl Sent-Byov o‘z davrida: “Chinakam tanqidchi odamlardan o‘zib ketadi, jamoatchilik fikrini boshqaradi. Agar xaloyiq bo‘ronlar alg‘ov-dalg‘ovida adashib, to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘igan bo‘lsa, munaqqid aslo o‘zini yo‘qotmasdan bor ovozi bilan “Ortga qaytmoq kerak”, deya qichqiradi”, deb yozgan edi. Bu gap qaysidir ma’noda hozir ham o‘z qimmatiga ega. Xuddi shu olim ma’naviy olam nafosati va ulug‘vorligini e’zozlagan holda adabiyotdagi merkantilistik kayfiyatlarni, ya’ni manfaatparastlik, foydaxo‘rlikni tanqid qiladi. Bu noxush kayfiyat egalari haqiqiy san’atkor va olimlarga davrdosh bo‘ladi, ammo oradan yillar o‘tishi bilan izsiz yo‘qoladi. Bu ham tarixning bir ibratli sabog‘idir.

Birovdan eshitgan yoki har joydan “cho‘qib” o‘qiganlari asosida, ayniqsa, hozirgi internetlashuv zamonida ko‘rganlaridan ko‘chirib maqola yozish qiyin ish emas. Epik asar syujeti yoki voqeiy she’rlarni qayta gapirib berish bilan ham qog‘oz qoralash mumkin. Ammo asl adabiy tanqidiy maqola chinakam san’at asariga o‘xshab tug‘iladi. Uning o‘ziga xos uslubi, kompozision qurilishi bo‘ladi.

Meningcha, bugun adabiy tanqid shakl va mazmun jihatidan yangilanishi kerak. Ushbu ilm sohasi o‘zining nazariy mezonlarini dunyo adabiyotshunosligida kechayotgan jarayonlarga uyg‘unlashtirishi lozim. Chunki jahon adabiyotshunosligida adabiy tanqidchilikning struktural va immanent analiz, semiotik, intertekstual, genetik, germenevtik, psixotanqid kabi turlari mavjud. Bunday usullar o‘rganilib, o‘zbekona adabiy-ilmiy tafakkur bilan sintezlashishi natijasida bizda ham yangi tanqid maydonga keladi. G‘arb adabiyotshunosligida badiiy asarga bir xildagi yondashuvlardan, jo‘n ijtimoiy talqinlardan, yaxshi va yomon, real va noreal, oq va qora tarzidagi atigi ikki sifatdan bezish oqibatida “yangi tanqid” paydo bo‘lgan edi. Zero, nazariy mezonlar maktablarga, maktablar shaxsiyatlarga, shaxsiyatlar muayyan millatlarga mansub. Shu ma’noda bizda ham kelajakda dunyo adabiyotshunosligiga o‘z

ta'sirini o'tkazadigan yuksak ilmiy saviyali olimlar va ularning individual maktablari paydo bo'lishini orzu qilamiz.

Adabiy tanqid jonlanishi uchun nazariy qarashlarni kuchaytirish barobarida bevosita amaliy ishlar ham zarur: birinchidan, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari magistratura bosqichida maxsus "Adabiy tanqid nazariyasi" yo'nalishini ochish va unga iste'dodli yoshlarni o'qishga qabul qilish kerak. Mutaxassis shakllanadi, ilm oladi. Bu faoliyat turini adabiy to'garaklar doirasida hal qilib bo'lmaydi; ikkinchidan, adabiy tanqidga doir maxsus jurnalga zarurat bor; uchinchidan, nufuzli jurnallar va nashriyotlarda bosilayotgan badiiy asarlarni ichki taqriz orqali mutaxassis nazaridan o'tkazish nizomlarini ishlab chiqish lozim.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
ADABIYOTSHUNOSLIK – BADIY ADABIYOT	
HAQIDAGI FAN .....	5
BADIY ADABIYOT- SAN’AT TURI SIFATIDA.....	8
BADIY ASARDA MAVZU VA G‘OYA .....	11
BADIY ASAR SYUJETI VA KOMPOZISIYASI.....	14
BADIY ASAR TILI.....	17
ADABIY TUR VA JANRLAR.....	20
SHE’R TUZILISHI .....	23
ADABIY YO‘NALISH VA MAKTABLAR.....	26
BADIY ADABIYOT VA ADABIY JARAYON .....	29
INTERFAOL TOPSHIRIQLAR .....	32
KEYS TOPSHIRIQLAR.....	37
BADIY ASAR TAHLILI .....	40
JAHON ADABIYOTSHUNOSLARI.....	42
GLOSSARIY.....	46
ILOVA .....	52

**Qaydlar uchun:**

**G. XALLIYEVA**

# **ADABIYOTSHUNOSLIK**

Bosishga ruxsat etildi 10.11.17.  
Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . Shartli 3,75 b.t. nusxada bosildi.  
Buyurtma №

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2017.